TA’LIMDA GENDER TENGLIK MASALASI

BARATOVA MAXSUDA TOSHBOLTAYEVNA
Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Sotsiologiya yo’nalishi 209-guruh talabasi,
XAYDAROVA XILOLA XISLATOVNA
Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Sotsiologiya kafedrasi asessenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash masalasi, uning ijtimoiy ahamiyati hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Gender tenglik tushunchasining mazmuni, ta’lim jarayonida uchraydigan gender tengsizlik muammolari, xususan qizlarning ta’lim olish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, ta’lim tizimi, ijtimoiy adolat, , gender stereotiplari, oila va jamiyat, tenglikka erishish strategiyasi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется вопрос обеспечения гендерного равенства в системе образования, его социальное значение и роль в развитии общества. Рассматривается содержание концепции гендерного равенства, проблемы гендерного неравенства в образовательном процессе, в частности, социальные, экономические и культурные факторы, влияющие на образовательные возможности девочек.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, система образования, социальная справедливость, гендерные стереотипы, семья и общество, стратегия достижения равенства.*

Abstract: *This article analyzes the issue of ensuring gender equality in the education system, its social significance, and its role in societal*

development. It examines the concept of gender equality, issues of gender inequality in the educational process, and, in particular, the social, economic, and cultural factors influencing girls' educational opportunities.

Keywords: *gender equality, education system, social justice, gender stereotypes, family and society, strategy for achieving equality.*

Gender tenglik – jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlilikka erishish, barcha sohalarda erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Gender tenglik faqat ayol-qizlar emas, balki erkaklarning ham tengligidir. Gender tenglik xotin-qizlar va erkaklarning inson huquqlari, shu jumladan, zo‘ravonlikdan holi bo‘lgan, oila va jamiyatda xavfsiz va qulay sharoitda hayot kechirish huquqlarini, himoyalanishini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash jamiyatda barqarorlikni saqlashning asosiy omillaridan. Shuni hisobga olgan holda, “2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” loyihasi tayyorlanib, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan kelishilmoqda. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “12-modda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasining vakolatlari “jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishishga, davlat xizmatining rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog‘ida jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik prinsipini ta’minlashga ko‘maklashadi.

Yangi qonun bilan gender tenglikni ta’minlash kafolatlari yaratilgani O‘zbekistonda bu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatdi va bu mamlakatimizning inson huquqlari sohasidagi ilg‘or qadamidan nishonadir.

Gender tenglikni ta’minlash masalasi dunyo bo‘ylab muhim ahamiyatga ega. BMT tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, xususan, 2015 yil qabul qilingan 70-sonli rezolyusiyada bu o‘z ifodasini topgan.

BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda “O‘zbekistonning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari” qabul qilingan.

O‘zbekistonning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad – “Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”dir [2].

Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa choralarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek, davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas’ul.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy qonunchiligimizda ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, joriy yil 2 sentabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqi hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi [1].

Qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta’rif berildi. Unga ko‘ra, gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi [6].

“Gender” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi lotincha “genus”, ya’ni “jins” ma’nosini anglatadi. Agarda, biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo‘lsa, gender – bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rnini

ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan ushbu oliy yuridik kuchga ega qonun hujjatida qonun va huquq ijodkorligi sohasida yangi yo‘nalish – gender-huquqiy ekspertizasi joriy etildi [1].

Xususan, gender-huquqiy espertizasi normativ-huquqiy hujjatlar va uning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari sifatida mazkur qonunning 4-moddasiga muvofiq qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarga teng huquqlik, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ochiqlik va shaffoflik kabi prinsiplar belgilandi. Gender-huquqiy ekspertizani o‘tkazish vakolatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlarga yuklatildi. Ularning har biri o‘z faoliyati yo‘nalishidan kelib chiqib normativ-huquqiy hujjatlar va uning loyihalarini tahlil qiladi hamda gender-huquqiy ekspertiza xulosasini qabul qiladi. Qonunda normativ-huquqiy hujjatlar va uning loyihalarini tahlil qilishning muhim jihatlari belgilangan. Jumladan, jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish imkoniyati yaratilgan normativ-huquqiy hujjat yoki uning loyihasi xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash prinsiplariga muvofiq emasligi aniqlanadi. Bunday hujjat loyihasini qabul qilish oqibatlari baholanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, kamsitish xususiyatiga ega xavflar aniqlanadi. Ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi [2].

O’zi avvaldan gender tenglik masalasi juda dolzarb masalalardan biri sifatida qaralgan bo’lib, u feminizimning hozirgi ko’rinishidir. Bu mavzu haqida juda ko’p olimlarning qarashlari keltirilgan bo’lib,ulardan quydagi

olimlar qarashlarini ko'rib chiqamiz. Masalan: ingliz sotsiologi Entoni Giddensning (1938yil 18- yanvar) "SOTSIOLOGIYA" asarida ham ayollarning jamiyatda o'z o'rnilarini topishida olib borilgan kurashlari haqida hamda, ta'limda gender masalasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Ushbu kitobda "gender va maktab ta'limi","gender va ta'lim dasturlari" haqida keltirilib o'tilgan. Kitobda ko'p nusxada chop etilib tarqatilgan " Neshnl elimentari prinsipl" jo'rnalida 1966-yil paydo bo'lgan maqolada bolalarning jinsi bo'yicha guruhlashtirilgan maktab uchun yangi o'quv dasturining obzori berilgan. Tajriba uchun Verjiniyaning Feyerfaks grafligidagi Ueykfild boshlang'ich maktabi tanlangan. Ushbu maqola yozilgan vaqtda o'g'il va qiz bolalar alohida o'qitilayotgan bo'lgan.

O'g'il bolalar uchun ko'proq fanlarni o'qitishga,qurilish-binokorlik ishlariga va amaliy faoliyatga ham katta e'tibor berilgan;qizlar uchun mo'ljallangan sinflarda bichish-tikish va uy-ro'zg'or ishlarini yurgizishga katta e'tibor berilgan. O'qib chiqish uchun o'g'ilbola va qiz bolalarga alohida matnlar taklif etilgan. Maktab ta'limida jinslarning notengligini ko'rsatuvchi misollar sinfiy yoki etnik harakterdagi notenglik na'munalaridan farq qiladi. Masalan, fanlarni o'zlashtirish bo'yicha boshlang'ich maktabda va o'rta ta'limning ilk bosqichlarida qiz bolalar o'g'il bolalardan ancha o'zib ketadilar. So'ngra qizlar asta –sekin orqada qola boshlaydilar va ba'zi bir fanlar sohasida ular o'g'il bolalar bilan teng o'qitilmaydi.Tabiiy fanlarda,texnika sohasida,tibbiyot sahasidagi kollej va universitetlarda hozirga qadar ham qizlarga qaraganda yigitlar ko'pchilikni tashkil etadi [4]. Musotoshmuhammad o'gli Oybekning "Gulnor opa" asari o'zbek adabiyotida ayol shaxsiyati, uning jamiyatdagi o'rni va gender tenglik masalalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Asarda ayolning faqat oilaviy vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi zarurligi ko'rsatiladi. Asarda Gulnora obrazi ayolni mustaqil fikrlaydigan, o'z qadr-qimmatini anglaydigan shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu orqali muallif ayolni erkakdan kam emasligini

ta’kidlaydi. Gulnora ilm olish va o‘zini rivojlantirishga intiladi. Bu g‘oya ayollarning bilimli bo‘lishi jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligini ko‘rsatadi. Asarda eski urf-odatlar va ayolni cheklovchi qarashlar tanqid qilinadi. Gulnora o‘z huquqlarini himoya qilish orqali ayollarning erkin yashash huquqini ifodalaydi. Asarda ayol faqat uy bekasi emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi faol shaxs sifatida ko‘rsatiladi. “Gulnor opa” asari gender tenglik g‘oyasini ilgari surib, ayollarning ta’lim olishi, mustaqil fikrlashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi muhimligini ta’kidlaydi. Asar bugungi kunda ham ayol huquqlari va tenglik masalalarini anglashda dolzarbligini saqlab qolgan [5]. Ayollar va erkaklar birgalikda ekotizimni boyitishga hissa qo'shadilar. Ayollar erkaklar kabi ko'p jismoniy mehnat qilmasalar ham, ularning intellektual mehnati va g'oyalari shahar ekotizimini boyitishda muhim rol o'ynaydi [8].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsam hozirgi kunda mamlakatimizda gender masalalariga yurtboshimiz SH.Mirziyoyev asosiy e’tiborini qaratib, juda ko’p samarali va oliyjanob ishlarni olib bormoqda. Biz ayollarning huquqlarimiz va imkoniyatlarimizni, barcha sohalarda, erkaklar qatorida birdek namoyon etishimizga zamin yaratib bermoqda. Ta’limda gender tenglikni ta’minlash — bu shunchaki ayol va erkaklarning maktabga borishidagi tenglik emas, balki ularning bilim olish, o‘z salohiyatini namoyon etish va kelajakda munosib o‘rin egallash imkoniyatlarining tengligini kafolatlash demakdir. Gender tenglik ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida — imkoniyat, sharoit, munosabat va natijalarda o‘z ifodasini topishi zarur. Jamiyat taraqqiyoti bevosita inson kapitaliga bog‘liq. Agar qizlar va o‘g‘il bolalar teng sharoitda sifatli ta’lim olsalar, bu nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va adolatli jamiyat qurilishiga xizmat qiladi. Gender stereotiplaridan xoli ta’lim muhiti esa yosh avlodni erkin fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va kasbiy o‘zini namoyon etishga undaydi. Shunday ekan, ta’lim tizimida gender tenglikni qaror toptirish davlat siyosati, pedagogik

yondashuv va jamiyat ongining uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Faqat shundagina biz bilimli, raqobatbardosh va teng imkoniyatlarga ega avlodni tarbiyalay olamiz. Gender tenglik — bu taraqqiyot, adolat va barqaror kelajak sari muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 01.05.2023

2. “O’zbekiston- 2030 taraqqiyot strategiyasi” Sh.Mirziyoyevning murojatnomasi

3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni

4. Entoni Gedens “Sotsiologiya” "Sharq"nashriyoti, Toshkent-2002.482-484-betlar

5. Muso Toshmuhammad Og’li Oybek”Gulnor opa” hikoyasi 1930-y 5 -oktabr.

6. https://lex.uz › docs

7. https://senat.uz/publication/post-284

8. Khislatovna, Khaydarova K. "Analysis and Solutions of the Gender Factor in the Management of the Modern Uzbek Urban Ecosystem." *American Journal of Business Management, Economics, and Banking*, vol. 9, 26 Feb. 2023, pp. 115-118.